

«TASDIQLAYMAN»




«KELISHILDI»




«KELISHILDI»

Buxoro viloyati
Sog'liqni saqlash boshqarmasi
boshlig'i
_____ A.Baxronov
_____ 2022 y.



«KELISHILDI»

Buxoro viloyati
Qurilish Bosh Boshqarmasi
rahbari
_____ Sh.Mannonov
_____ 2022 y.



LOYIHA TOPSHIRIG'I

Buxoro viloyat Jondor tuman «Dovud» MFY 15-oilaviy poliklinika «O'zbekiston» filiali binosini rekonstruksiya qilish.

№	Asosiy ma'lumotlar va talablar	Asosiy ma'lumotlar va talablarning mazmuni.
1	Ob'ekt nomi.	Buxoro viloyat Jondor tuman «Dovud» MFY 15-oilaviy poliklinika «O'zbekiston» filiali binosini mukammal ta'mirlash.
2	Ob'ekt joyi	Jondor tuman «Dovud» MFY
3	Buyurtmachi	Buxoro Viloyati hokimligi huzuridagi yagona buyurtmachi xizmati-injining kompaniyasi
4	Bosh loyihachi	Tanlov savdolari natijalariga asosan
5	Qurilishni taxminiy bahosi	700 mln
6	Bosh pudratchi qurilish tashkiloti	Tanlov savdolari natijalariga asosan
7	Kapital ta'mirlashning taxriniy muddatlari	2022 yil
8	Loyihalashtirish bosqichi	1 bosqichli
9	Qurilish turi	Mukammal ta'mirlash
10	Moliyalashtirish manbai	Mahalliy mablag'
11	Ob'ektning yo'nalishi va asosiy ko'rsatkichlari (umumiy maydoni, hajmi, o'lchamlari va boshqalar)	Daxliz pollarini qisman ta'mirlash (kafel) Xonalar taxta pollarini rilen pollarga almashtirish. Devorlarni pardoqlash ishlari (водоэмульция) Shiftlari pardoqlash ishlari (водоэмульция) Elektrlashtirish ishlarini 100%ga bajarish. Yong'in xavfsizligi tizimini 100%ga bajarish. Suv ta'minoti tizimi 100%ga bajarish. Isitish tizimi 100% ga bajarish. Tom qoplamasi qisman ta'mirlash. Isitish qozonini almashtirish (электрические) Tashqi devorlarni pardoqlash ishlarini bajarish. Tashqi sokol qismini ta'mirlash. Bino atrofidagi beton yo'lakchalarini (отмостка) ta'mirlash.
12.	Binolarni pardoqlash va ish hajmlariga qo'yiladigan talablar	Mukammal ta'mirlash loyihasida quyidagilarni inobatga olish: Buzish ishlari. Bino uchun olingan texnik xulosaga asosan buyurtmachi bilan kelishilgan holda mavjud pol qismini tag asosigacha deraza va eshik romlarini ichki muhandislik tarmoqlarini buzib olish. Eski suv quvurlar va pardoq qoplamalarini ko'chirish hamda qurilish chiqindilarini olib chiqib ketish xarajatlarini hisobga olish (nuqsonli dalolatnoma bo'yicha). Binoning barcha eshik va dereza romlarini almashtirish. Yog'och eshik, derazalar plastik profillarga almashtirilsin.Xonalarda kamida qalinligi 6.0mm va kengligi 1.2 m MDF mahsulotidan tayyorlangan oynali deraza romlar o'rnatilsin. - hojatxonalarda - MDf yopiq eshik (gluxoy). - eshik qulflari zamonaviy, bardoshli va sifatli Elektr shit xonasi - o'tga chidamli materialdan eshiklarni o'rnatish: Pollarni ta'mirlash. Pol yotqizish ishlarida:

		<p>- Xonalarda-lenolim,relin</p> <p>- yo'laklarda va laboratoriya xonalarida- katta o'lchamli plitka, sirg'almaydigan (матовый).</p> <p>- hojatxonalarda pollar - keramik plitkalar, xonaning chekka burchagida nishab bilan trap o'rnatishni inobatga olish.</p> <p>Pardoqlash ishlari</p> <p>- devorlar suvoqlash, so'ngra suvli va yog'li bo'yoq bilan bo'yash</p> <p>- shiftlar suvoqlash, so'ngra suvli bo'yoq bilan</p> <p>- hojatxonalarda keramik plitkalar h-1,5 m balandlikda.</p> <p>-yuvinish moslamalarini o'rnatishda bir butunli pol sathidan chiquvchi umivalniklardan foydalanish,</p> <p>Tashqi devorlar va ayvon.</p> <p>Tashqi fasadni bazalf qoplamasi bilan qoplash so'ngra fasad bo'yoqlari bilan bo'yash.</p> <p>- sokol ("korka").</p> <p>Texnik shartlarga muvofiq ichki muhandislik tarmoqlari va tizimlarini to'liq almashtirish</p> <p>- sovuq suv bilan ta'minlash. Ichki sovuq suv ta'minoti polipropilen asosidagi quvurlardan iborat bo'lishi kerak. Sovuq va issiq suv iste'molchilariga quvur liniyalari va chiqish joylarini yotqizish devor ostida (kanallarida) yashiringan holda amalga oshirilishi kerak.</p> <p>- issiq suv ta'minoti va isitish tizimi (buyurtmachi bilan kelishilgan holda individual modulli qozonxona o'rnatish).</p> <p>Bitta quvurli tizimni nasos o'rnatish bilan qo'llash. Quvur ichidagi suvning sovishini oldini olish uchun quvurlar issiqlik izolatsiyasini qo'llash.</p> <p>Quvurlar devor ostida (kanallarida) yashiringan holda amalga oshirilishi kerak.</p> <p>Radiatorlar biometrik. Ichki oqava tizimi:</p> <p>Ichki oqava tarmoqlari yuqori quvvat va gigienik xususiyatlarga ega bo'lgan PVX quvurlaridan tayyorlanishi kerak. Oqava quvurlarini shaxtalarga yotqizish. Oqava chiqadigan joyni tashqi oqava tarmog'iga ulash. Tiqilib qolishi mumkin bo'lgan, joylarda oqava quvurlarini qayta ko'rib chiqish va tozalash imkoniyatini ta'minlash.</p> <p>- hojatxona xonalarida xonaning chekka burchagida nishab bilan trap o'rnatishni inobatga olish. Yuvinish moslamalarini o'rnatishda bir butunli pol sathidan chiquvchi umivalniklardan foydalanish.</p> <p>- elektr ta'minoti tizimi mavjud va buyurtmachi bilan kelishilgan holda qo'shimcha rozetkalarini o'rnatish bilan, kalitlar (выключатель)ni pol sathidan 0.90 mm, rozetkani 0.40 m balandlikda o'rnatish;</p> <p>Tomni ta'mirlash.</p> <p>Tomni nuqsonlar dalolatnomasiga asosan ta'mirlash. (qalinligi kamida 0.5mm bo'lgan (profnastil)</p> <p>Yomg'ir suv quvuri (водосток) - yomg'ir suv tarnovlari qoplamali ruxlangan metal quvurdan drenaj tizimining yer osti drenajiga chuqurlashtirish zarur.</p>
13.	Konstruktiv yechimlarga	Qurish-montaj ishlarining turiga qarab konstruktiv yechimlar loyiha bilan ta'minlash kerak, shu jumladan devorlar

	qo'yiladigan talablar	(yoriqlar)ning shikastlangan uchastkalarini mustahkamlash va mahkamlash bundan oldin buyurtmachi bilan ishlatiladigan materiallar va mahsulotlar to'g'risida kelishib olish (bino uchun olingan texnik xulosaga asosan)
14	Muxandislik va texnologik asbob uskunalarga, texnologik jihozlarga qo'yiladigan talablar. Texnologik asbob-uskunalarining ro'yxati.	Bino hududini obodonlashtirish bo'yicha ishchi hujjatlarni taqdim etish : Bino atrofini g'ishtdan yoki metall ustunlarga egilgan profildan yasalgan -Bino hududining asfalt qoplamasini binoning otmostkasi bilan ta'mirlash; - Bino hududida axlat uchun konteyner maydonchasini tashkil etish - tashqi yoritgichlar o'rnatish.
15	Kommunal va muhandislik tizimlariga qo'yiladigan talablar	Ichki muhandislik tarmoqlari va tizimlari amaldagi me'yoriy talablarga, muvofiq bajarilishi kerak. Yong'in, signalizatsiyasi signallari, videokuzatuv, o't o'chirish punktini birinchi qavat foyesida joylash.
16	Loyiha yechimlarini kelishishga qo'yiladigan talablar	Loyihalash tashkiloti loyihalash hujjatlarini barcha manfaatdor tashkilotlar, shu jumladan buyurtmachi bilan kelishish
17	Namoyish materialarini tayyorlash	Buyurtmachiga topshirish uchun namoyish materialini ishlab chiqish shu jumladan binolarni pardoqlashni (xonalar koridorlar vestibul sanitariya bo'linmasi) zamonaviy dizayn elementlaridan foydalangan holda bezash ishlari albomi.
18	Favqulodda vaziyatlar oldini olish tadbirlarini ishlab chiqarish zarurati	Talab qilinmaydi
19	Energiya samaradorligi	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2011 yil 02.06 yildagi 161 -sonli qaroriga PKM 20.10.2015 yildagi 299-sonli qaroriga binoan loyiha energiya tejaydigan lampalarni o'z ichiga oladi.
20	Nogironlarning davolanish sharoitini taminlashga qo'yiladigan talablar	Nogironlar uchun pandus va xojatxonani ko'zda tutish
21	Smeta xujjatlarini ishlab chiqish zarurati	Ishlab chiqishda quyidagi ish hajmlarini ko'zda tutish. Ishchi chizmalar, resurs smetalari tarkibida lokal resurs hisobi bilan materiallar. Qurilishning boshlang'ich narxini amaldagi narxlarda hisoblash.
22	Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan asosiy dastlabgi ma'lumotlar	Xarajatlar kalkulyatsiyasiga kiritiladigan demontaj ishlari inventarizatsiyasi. -Kommunal xizmatlarni ulash uchun texnik shartlar. -Buyurtmachining loyiha taklifi. Boshqa dastlabgi malumotlarga bo'lgan ehtiyoj tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida joriy tartibda aniqlanadi.
23	Maxsus shartlar	Pudratchi ekspertiza davomida dizayn yechimlarini himoya qilishni ta'minlaydi. Ekspertiza xizmatlari uchun to'lovni buyurtmachi ekspertiza organlari bilan to'g'ridan to'g'ri shartnomalar asosida amalga oshiriladi.
24	Buyurtmachi taqdim etiladigan hujjatlar	SHNK 1.03.01-08 VA 2.9 Binolar va inshootlarning kapital qurilishining tarkibi ishlab chiqish tarkibi loyiha hujjatlarini

		kelishish va tasdiqlash. -Ishchi loyiha lokal resurs smetalari 3 nusxada -Lokal resurs smetalar elektron versiyasi disk bilan -Binolarni pardoqlashni (xonalari, koridorlar, vestibul, sanitariya bo'linmasi) zamonaviy dizayn elementlaridan foydalangan holda bezash ishlari.
--	--	--

**Buxoro Viloyati hokimligi huzuridagi
yagona buyurtmachi xizmati-injiniring
kompaniyasi vakili:**



B. Xayitov